



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 8-fevral

83-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi 28-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “O‘zbekiston respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 28-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, viloyatda transport-logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini yanada rivojlantirish, tranzit salohiyatini oshirish, istiqbolli transport yo‘laklarini shakllantirish, eksport-import operatsiyalari qiymatida transport xarajatlarini kamaytirish hamda tashqi bozorlarga yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi 28-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni 2025-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 1-muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi 28-sonli qarori bilan quyidagilar:

xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisobiga tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash, mavjud to‘siqlarni bartaraf etish, tashqi bozorlarga yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, transport-logistika xarajatlarini maqbullashtirish;

multimodal tamoyilni maksimal darajada amalga oshirish imkonini beruvchi logistika xizmatlari bozorini rivojlantirish, 3PL va undan yuqori formatda xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan yirik milliy transport operatorlari tashkil etilishini rag‘batlantirish;

mamlakat tranzit salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish, shu jumladan, moslashuvchan tarif siyosatini qo'llash va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish yo'li bilan qo'shimcha tranzit yuk oqimlarini jalb etish;

tashqi va ichki moliyalashtirish manbalarini jalb etish ko'lamini kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida transport infratuzilmasini kompleks va ildam rivojlantirish, hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-logistika markazlarining zamonaviy tarmog'ini shakllantirish;

xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiya qilgan holda mamlakatning logistika tizimi platformalarini shakllantirish, xalqaro yuk tashishlarda raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, logistika sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi 28-sonli qarori bilan Transport vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari bo'ylarida yo'lbo'yi servis ("Service area" va "Service point") obyektlarini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

"Service area" va "Service point" obyektlarini tashkil etishda yer uchastkalari o'rmon fondi yerlari hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasidan sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar toifasiga o'rnatilgan tartibda o'zgartirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Viloyatda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari bo'ylarida "Service area" va "Service point" obyektlarini tashkil etishning maqsadli ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib viloyat Transport boshqarmasi boshlig'i T.Ergashev, tegishli boshqarma va tashkilot rahbarlari, shahar va tuman hokimlari belgilansin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimi o'rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati
hokimi



Z.Mirzayev

Toshkent viloyat hokimining
2025-yil 8-fevraldagi
83-10-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Viloyatning transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni
2025-yilda amalga oshirish bo'yicha**

“YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddatlari	Mas'ul ijrochilar
I. Transport infratuzilmasini kompleks va ildam rivojlantirish, logistika markazlarining keng tarmog'ini shakllantirish				
1.	Yo'lbo'yi infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida xalqaro standartlarga muvofiq 72 ta zamonaviy yo'l bo'yi servis obyektlarini (<i>TIR parklar, motellar va boshqalar</i>) joylashtirish hududini aniqlash va elektron savdoga chiqarish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil davomida	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (<i>S.Jumayev</i>), Shahar va tuman hokimlari, Viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi (<i>J.Bekmurzayev</i>)
II. Raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, logistika sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish				
2.	Geoaxborot (GAT) texnologiyalari asosida transport, logistika va yo'l xo'jaligi sohasidagi infratuzilma obyektlarining elektron ID-reyestrini yuritish hamda geoaxborot ma'lumotlar bazasini bosqichma-	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil avgust	Viloyat Transport boshqarmasi (<i>T.Ergashev</i>), Viloyat raqamli texnologiyalar sho'basi

	bosqich ishlab chiqish.			<i>(X.Yuldashev),</i> Shahar va tuman hokimlari
--	-------------------------	--	--	---

Toshkent viloyat hokimining
2025-yil 8-fevraldagi
83-10-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Viloyatdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari bo‘ylarida
“Service area” va “Service point” obyektlarini tashkil etishning**

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

T/r	Hududlar nomi	Xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar uzunligi (km)	Davlat ahamiyatidagi yo‘llar uzunligi (km)	Tashkil etiladigan “Service area” va “Service point” obyektlari soni prognozi	shundan:	
					master reja asosida auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalari	tayyor biznes shaklida auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalari
1.	Toshkent viloyati	319	1 351	8	8	